Ahmedov Ravshanbek Abdixamid o‘g‘li
Farg‘ona viloyati Bog‘dod tumani “Zamin quyoshi” fermer xo‘jaligi rahbari,
Farg‘ona Politexnika Instituti, erkin izlanuvchi
Emal: emmim1991@mail.ru

RAQAMLASHTIRILGAN MAHALLA DASTURINI ISHGA TUSHIRISHNING AHAMIYATI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10540597

Annotatsiya. Raqamli iqtisodiyot - raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog‘liq iqtisodiy faoliyat hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar yig‘indisidir. Ba’zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi. Hozirda raqamli iqtisodiytga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Shuning uchun yurtimizda barcha sohalarni raqamlashtirish jadal rivojlanib borayotganini ko‘rish mumkin. Ushbu maqola ham aynan raqamlashtrishning bir turini o‘z ichiga oladi. Ya’ni raqamli mahalla orqali O‘zbeiston sharotida mahallalarni boshqarishni optimallashtirish haqida o‘rganildi.

Tayanch so‘zlar: raqamli mahalla, raqamli iqtisodiyot, o‘z mahalla nomi, komissiyasi, onlayn.

So‘ngi vaqtlarda "Raqamli iqtisodiyot" tushunchasi juda ko‘p marta qo‘llanilmoqda. Darhaqiqat, ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiy ularning rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazgan. Jamiyat hayotida raqamli iqtisodiyot muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu mavzuni yoritishdan avval, kundalik hayotimizda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan bir holatni qarab chiqsak. Tasavvur qiling, juma kuni ishdan uyga keldingiz, oila a’zolaringiz davrasidasiz, birdan shanba va yakshanba dam olish kunlari mashinada Samarqand viloyati va Samarqand shahriga sayohat qilish fikri paydo bo‘ldi. Lekin Sizning shaxsiy mashinangiz yo‘q. Shunda Siz kompyuter yoki smartfoningiz orqali mashinalarni ijaraga taqdim etuvchi kompaniyalar saytlari yoki mobil ilovalariga kirib, ism-sharifingiz, haydovchilik guvohnomangiz raqamini kiritib, ikki kunga 6 kishilik oilaviy mashina buyurtma berdingiz. Endi sayohat yo‘nalishi tanlash kerak. Qayerlarga boriladi, qaysi muzey, tarixiy obidalarga tashrif buyuriladi. Shunda Siz sayyohlik xizmatini ko‘rsatadigan agentliklar saytlari yoki mobil ilovalariga kirib, oila a’zolaringiz sonini kiritib, o‘zingizga va oila a’zolaringizga qiziq bo‘ladigan sayyohlik yo‘nalishini tanlaysiz. Shunda shanba kuni ertalab uyingiz oldida 6 kishilik mashina, smartfoningizda muzey va tarixiy obidalarga kirish chiptalari va mehmonxonada tunab qolish uchun oldindan buyurtma qilingan joy bo‘ladi. Siz hech qayerga bormasdan, hech kimga qo‘ng‘iroq qilmasdan ikki kunga oilaviy, mashinada, sayohatni tashkil qildingiz. So‘ng Samarqandga yo‘l oldingiz. U yerda ikki kun aylangan so‘ng, yakshanba kuni uyga qaytishda ozgina charchaganingizni sezdingiz, bundan tashqari dushanba kuni ishga borish kerak. Shunda Siz smartfoningizni olib darrov o‘zingizga va oila a’zolaringizga Afrosiyob tezyurar poyezdlariga chipta olib, vokzalga borasiz va uyga yo‘l olasiz, mashina vokzalda qoldiriladi. Raqamli iqtisodiyot tushuncha nisbatan uzoq bo‘lmagan vaqtda, 1995-yili Massachusets universiteti amerikalik olimi Nikolas Negroponte tomonidan aniqlab berilgan. Olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o‘tishda, qanday o‘zgarishlar ro‘y berishi mumkinligini aytib o‘tgan.

Raqamli iqtisodiyot - bu xo‘jalik faoliyatini

yuritish bo‘lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko‘rinshidagi ma’lumotlar bo‘lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiq qilishdir. Boshqacha qilib aytgancha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko‘rsatish, elektron tulovlar amalga oshirish, internet savdo, kraudfanding va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog‘langan faoliyatdir.

O‘zbekistonda “O‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish Kengashlari” (Mahalla jamoat fondlari), aholi va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda muhim ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Albatta, kuni kecha Prezidentimiz rahbarligida bo‘lib o‘tgan yig‘ilish davomida Mahallalar yuzasidan va sohani tizimli rivojlantirish bo‘yicha barcha ta’kidlab o‘tilgan so‘zlari juda kerakli va o‘rinlidir. Bularga va sohaga befarq bo‘lmagan holatda Mahallalar bilan ishlashda “Raqamlashtirilgan mahalla dasturi” bo‘yicha loyihalar taklif etilmoqda. Chunki mahallar soni yildan yilgan ortib borishi uzatilmooqda (1-jadval).

1-jadval. O‘zbeiston Respubliasida 2022-2023 yil holatiga mahallar soni

№	Hududlar	Mahalla soni	№	Hududlar	Mahalla soni
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	259	8	Samarqand viloyati	585
2	Andijon viloyati	473	9	Surxondaryo viloyati	438
3	Buxoro viloyati	408	10	Sirdaryo viloyati	122
4	Jizzax viloyati	159	11	Toshkent viloyati	712
5	Qashqadaryo viloyati	511	12	Farg‘ona viloyati	716
6	Navoiy viloyati	211	13	Xorazm viloyati	302
7	Namangan viloyati	328	14	Toshkent shahri	67

Birinchidan, Vatanimizdagi barcha Mahallalar Kengashlarini alohida “O‘z saytini” ishlab chiqilishi va sohada yagona markazlashgan raqamlashtirgan tizimiga bog‘lanishini ta’minlash kerak; (Bunda, Mahalla tizimi to‘liq raqamlangan dasturlar yordamida ishlab, sohani yuqori qismdan to quyi qismgacha to‘liq bog‘lanadi va istalganda nazorat o‘rnatishga erishiladi).

Ikkinchidan, har bir mahallalar kesimida “O‘z mahalla nomi” bilan ishga tushirilgan ushbu saytlarga mahalla to‘g‘risidagi to‘liq ma’lumotlarni jumladan, mavjud aholi soni, xo‘jaliklar soni, mahallaning mavjud hududiy yer maydonlari, mahlladagi ijtimoiy muassasalar soni, hududdagi ishlab chiqarish ob’yektlari, tadbirkorlar soni, kam ta’minlangan oilalar, nogironligi bor oilalar soni va boshqa zaruriy ma’lumotlar kiritib boriladi;

(Bunda , kiritilgan ma’lumotlar Bunda, kiritilgan ma’lumotlar – 3 yoki 6 oyda bir marotaba demografik vaziyatdan – aholi o‘sishi va boshqa yangi ma’lumotlardan kelib chiqib, mahalla kotibi tomonidan yangilanib turiladi)

Uchinchidan, raqamlashtirilgan mahalla dasturini ishga tushirib, soha yordamida aholini “online” ro‘yhatdan o‘tgan hududi va propiska masalasini ham oson aniqlash.

- Kam ta’minlangan oilalar va nogironligi bo‘lgan oilalarni “online” ba’zaga kiritib, ularga Davlat tomonidan moddiy yordam ajratishda hamda Davlat idora –

tashkilotlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlarda va turli to‘lov – jarimalarda kam ta’minlangan va nogironligi bor oilalar uchun mavjud bo‘lgan imtiyozlar berilishidagi “online” nazorat qilishni samarali yo‘lga qo‘yish; *(Bunda, “online” mahalla dasturiga Mahalla komissiyasi tomonidan aniqlanib kiritilgan Kam ta’minlangan oilalar va nogironligi bor oilalar, aniq – oshkor bir yillik qayta komissiya ko‘rib chiqishiga qadar “online” tizimda saqlanadi va har qanday imtiyoz yaratilishida yoki nafaqalarni asosli berilishida mas’ullar tomonidan korrupsiya yoki moddiy yordamlarni noqonuniy o‘zlashtirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Shu bilan birga kam ta’minlanmagan oilalarga tanish – bilishchilik asosida Mahalla raisi yoki kotibi tomonidan beriladigan “kam ta’minlangan” degan ma’lumotnomalarni yasab berilishiga qat’iyan chek qo‘yiladi)*

Bundan tashqari, Mahalla va oilani qo‘llab – quvvatlash vazirligi faoliyatini bosqichma – bosqich rivojlantirishga beg‘araz yordam ko‘rsatish maqsadida “RAQAMLI MAHALLA” dasturini ishlab chiqiladi va sohani to‘liq raqamlashtirish uchun peramida shaklida vazirlik, viloyat boshqarmalari hamda tuman (shahar)lar Mahalla Fuqarolar Yig‘inlari raqamli bog‘lanadi:

Mahalla va oilani qo‘llab–quvvatlash vazirligi

Mahalla va oilani qo‘llab–quvvatlash vazirligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi

Tuman (shahar) Mahalla va oilani qo‘llab –quvvatlash bo‘limi

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Mahalla va oilani qo‘llab – quvvatlash vazirligi va uning hududiy tizimlarini raqamlashtirish orqali MFYlar pasportlarini to‘liq onlaynlashtirish, yoshlar, xotin – qizlar hamda temir daftarlarni shu jumladan, Mahallalardagi kam ta’minlangan oilalarni (ID) bo‘yicha onlayn ro‘yhatga olish ishlarini va kambag‘allikni qisqartirish dasturlari ijrosini onlayn nazorat qilishdan iborat. (Ma’lumot uchun: RAQAMLI MAHALLA dasturi amalga oshirilishi natijasida umumxalq saylovlari o‘tkazishning zamonaviy onlayn platformasi avtomotik tarzda shakillanadi. Natijada, Markaziy Saylov Komissiyasiga bog‘langan qo‘shimcha tizim yaratiladi va saylovlar jarayonida ortiqcha qog‘ozbozliklardan kechiladi. Ushbu tizim bilan siyosiy saylov tadbirlari yanada shaffof va ochiqlik prinsplariga asoslangan holda amalga oshiriladi).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Internet ma’lumot. URL: https://www.texnoman.uz/post/raqamli-iqtisodiyot-nima.html

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 22-sentyabr kuni tarmoq va hududlarda raqamli iqtisodiyot hamda elektron hukumatni joriy qilish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi.

4. F.Mulaydinov., A.Abdullayev. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi, afzalliklari va amaliy ahamiyati // Ахборот-коммуникация технологиялари ва телекоммуникациялар-нинг замонавий муаммолари ва ечимлари онлайн республика илмий-техник анжуманининг маърузалар тўплами. 2021

Ахмедов Равшанбек Абдихамид угли
Руководитель фермерского хозяйства « Zamin quyoshi » Багдадского района Ферганской области,
Ферганский политехнический институт, в нештатной соискатель
Emal: emmim1991@mail.ru

ВАЖНОСТЬ РЕАЛИЗАЦИИ ПРОГРАММЫ «ЦИФРОВОГО СОСЕДСТВА»

Аннотация. Цифровая экономика – совокупность цифровых товаров и услуг, производимых и продаваемых в результате экономической деятельности, тесно связанной с электронным бизнесом и электронной коммерцией, основанной на цифровых технологиях. Иногда ее называют интернет-экономикой, новой экономикой или веб-экономикой. В настоящее время спрос на цифровую экономику возрастает. Поэтому видно, что в нашей стране стремительно развивается цифровизация всех отраслей. В этой статье также присутствует ровно один вид оцифровки. То есть через цифровое соседство изучалось оптимизация управления микрорайонами в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: цифровое соседство, цифровая экономика, название собственного квартала, комиссия, онлайн.

Akhmedov Ravshanbek Abdikhamid ugli
Head of the farm "Zamin quyoshi" of the Baghdad district of the Fergana region,
Fergana Polytechnic Institute, independent researcher
Emal: emmim1991@mail.ru

IMPORTANCE OF IMPLEMENTING THE DIGITAL NEIGHBORHOOD PROGRAM

Annotation. Digital economy is a set of digital goods and services produced and sold as a result of economic activity closely related to electronic business and electronic commerce based on digital technologies. It is sometimes referred to as the internet economy, the new economy, or the web economy. Currently, the demand for the digital economy is increasing. Therefore, it can be seen that digitization of all sectors is rapidly developing in our country. This article also contains exactly one type of digitization. That is, through the digital neighborhood, it was studied about the optimization of neighborhood management in the conditions of Uzbekistan.

Key words: digital neighborhood, digital economy, name of own neighborhood, commission, online.